

## IJTIMOY HIMOYA TIZIMIDA PENSIYA TAMINOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

*Farmonov Sohibjon*

*Toshken Davlat Iqtisodiyot*

*Universiteti talabasi*


**Annotasiya.** Maqolada fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish tizimida pensiya ta'minotining o'rni, taraqqiyot strategiyasida pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish bilan bog'liq yo'nalishlar, pensiya tizimini isloh qilish, konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining ahamiyati ochiqlab berilgan shuningdek ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** pensiya, pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqa, konsepsiya, ijtimoiy soha, ijtimoiy adolat, sug'urta badali, imtiyozli pensiyalar, mehnat staji, demografik omillar, jamg'arib boriladigan pensiya, nodavlat pensiya ta'minoti.

### **Kirish**

Pensiya ta'minoti tizimi aholining mehnatga layoqatsiz va muhtoj qismining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutadi. Fuqarolarni keksalik paytida kambag'allikdan himoyalash, mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish, oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash, ushbu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash kabilar pensiya tizimining asosiy maqsadlaridandir. Shuningdek, pensiya tizimining barqaror amal qilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning garovi hisoblanadi va aksincha, pensiya ta'minotining nobarqarorligi kuchli ijtimoiy xavfni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan har qanday mamlakat ijtimoiy siyosatining eng muhim vazifalari tarkibida pensiya tizimini isloh qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonning pensiya tizimida ham keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirish jarayonlari olib borilmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar yanada samarali qilish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish va rivojlamtirish maqsadida Harakatlar strategiyasining davomi sifatida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tashkil qilindi.



**1-rasm. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida pensiya ta'minoti tizimini isloh qilishga oid belgilangan maqsadlar**

Mazkur Taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy ta'minot, davlat pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirish bilan bog'liq asosiy yo'nalishlar aks ettirilgan (1-rasm). Ushbu yo'nalishlar xar xil darajada ijtimoiy ta'minot tizimini, xususan, davlat pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishga va uning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili**

AQShning Arizona universiteti professori J.Peng izlanishlari natijasida pensiya ta'minotiga oid qarashlar bayon etilgan bo'lib, u ishlovchilarning mehnat faoliyatidan so'ng moliyaviy barqarorligining keskinlashuvini va pensiya ta'minotining dolzarb masalalarini ko'tarib chiqadi. J.Peng pensiyani fuqarolarning qarilikdagi moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim va zarur daromad manbai ekanligini ta'kidlab, mazkur tizimda hozirdagi mavjud muammolarni va istiqboldagi o'zgarishlarni tadqiq qiladi. Pensiya ta'minotiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida esa quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: hozirgi yosh avlodning pensiyaga chiqish istiqboli; AQSh va butun dunyoda aholining umrguzaronligi; ijtimoiy va tibbiy sug'urtaga oid milliy dasturlar uchun moliyaviy resurslarning taqchilligi; shuningdek tarmoqdagi ishchi-xodimlar uchun an'anaviy pensiya ta'minotining yo'qolib borayotganligi; davlat sektoridagi ishchi-xodimlar uchun pensiyalar taqdim etish bahosining oshirilishi; tibbiyot xarajatlarining yuqori darajada, keskin o'sishi. AQShda ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta'minotlari, odatda, uch manba: ijtimoiy ta'minot, ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan pensiyalar va shaxsiy omonatlardan iborat bo'ladi. Bu uch manba birgalikda fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta'minlab berishi kerak bo'ladi.

Iqtisodchi-olim Yu.N.Borisenko tadqiqotlari fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash, mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga proporsional tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash, bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishini oldini olish kabilar pensiya tizimining asosiy maqsadi ekanligi, pensiya tizimining barqaror amal qilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning garovi hisoblanishi aks holda, pensiya ta'minotining nobarqarorligi kuchli ijtimoiy xavf kelib chiqishi kabilar keltirilgan.

### Tadqiqot metodologiyasi

Amalga oshirilayotgan tadqiqotimizning asosiy mavzusi pensiya ta'minoti tizimidagi islohotlarga bag'ishlanganligi uchun shu mavzuda tadqiqot olib borgan iqtisodchi-olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, ularning pensiya ta'minoti tizimidagi xususiyatlari, davlat pensiya ta'minotini isloh qilishdagi yondashuvlari tadqiq etilgan hamda tizimli yondashuv, umumlashtirish, qiyosiy tahlil metodlari qo'llanilgan.

### Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston "Allianz Pension Ranking 2023" pensiya reytingidagi 75 ta mamlakatlar qatorida 71-o'rinni egallab turibdi (*Qozig'iston 34-o'rinda, Rossiya – 37, Turkiya – 59-o'rinda*). Ushbu reyting uchta sub-indekslarga asoslangan, bular: **bazaviy sharoitlar**, **barqarorlik** va **pensiya tizimining monandligi**. Bular 1 dan 7 gacha bo'lgan shkala bo'yicha baholanadi (*bu yerda 1 – eng yuqori baho*). O'zbekistonning jami bahosi 4,5 ni tashkil etgan. (*bazaviy sharoitlar bo'yicha esa 4,4;*



barqarorlik bo'yicha 3,6 va monandlik bo'yicha 5,3). **Strategik islohotlar agentligi** ushbu holat sabablari va pensiya tizimi yaxshilash imkoniyatlarini o'rgandi.

O'zbekistonda pensiya badallari darajasi (12-25%) boshqa mamlakatlarga **nisbatan yuqori** bo'lib turibdi. Biroq to'lovlarning yalpi koeffitsiyenti (55%) o'rta. Mazkur ko'rsatkich ishchilarning o'rtacha ish haqiga nisbatan olingan o'rtacha pensiyani ko'rsatadi. Ushbu nomuvofiqlik fuqaro pensiya badallaridan ko'p mablag' olmayotgani, pensiyalar juda past ekanligini tushunish mumkin. Bundan tashqari, O'zbekistonda norasmiy bandlik yuqori bo'lgani sababli pensiya ta'minoti tizimining qamrovi past bo'lib – 38%ni tashkil qiladi. Pensiya mexanizmlari sifatida foydalanish mumkin bo'lgan rasmiy moliyaviy xizmatlar ommabopligi va foydalanilishi ham past.

O'zbekiston pensiya tizimi majburiy badallar bo'yicha belgilangan to'lov tizimidan iborat bo'lib, rivojlangan sari davlat byudjetidan ko'proq moliyalashtirilmoqda.

So'nggi yillarda, yani so'ngi 10 yilda Pensiya jamg'armasi daromadlari 3,4 baravarga oshgan bo'lsa, xarajatlari 5 baravarga oshgan. 2020-yildan pensiya to'lovlari moliyalashtirish uchun davlat byudjetidan doimiy ravishda transfert ajratilib kelmoqda.

2022-yilda transfert miqdori 11 trln so'm (jami xarajatning 24,7%) tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 15 trl so'm (29%) ko'zda tutilgan. 2030-yilda transfert miqdori 38 trln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda.

Aksariyat mamlakatlarda mazkur komponent kasbiy pensiya dasturlari yoki shaxsiy jamg'arish dasturlari bilan to'ldiriladi. O'zbekistonda kasbiy pensiya rejaları mavjud emas. Mavjud bo'lgan yagona individual jamg'arish dasturi majburiy bo'lib, badallar stavkasi past bo'lgani (oylik ish haqining 0,1%) va cheklovchi qoidalari ko'p bo'lgani bois katta ahamiyat kasb etmaydi.

Ushbu mablag'larga har yili inflyatsiya miqdorida foiz daromadlari (2021-yilda 10%, 2022-yilda 12,4%, 2023-yilda 8,8%) hisoblansa-da, fuqarolar o'z jamg'armalarini ixtiyoriy ravishda boshqa moliyaviy instrumentlarga yoki bank omonatlariga yo'naltirish huquqiga ega emas.

**Daniya va Niderlandiya** yuqoridagi va boshqa reytinglarda eng yuqori o'rinlarni egallaydi. Ularning pensiya tizimlari kuchli professional komponentga asoslangan. Masalan, Niderlandiyada davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan bazaviy belgilangan stavkali davlat pensiyasi mavjud. U sanoat shartnomalari bilan bog'langan majburiy pensiya rejasi bilan birlashtirilgan. Ushbu pensiya rejasi daromad bilan bog'liq va belgilangan imtiyozlarga ega, ammo kapital moliyalashtirishga asoslangan. Ish joyini o'zgartirganda pensiya huquqlari to'liq o'tkaziladi. Pensiya tizimiga umumiy badal stavkasi **18%** ni tashkil qiladi. Qamrov koeffitsiyenti **100%ni**, yalpi koeffitsiyent to'lovlari – kasbiy komponent hisobga olinmaganda va Niderlandiya aholining keksayishiga qaramasdan davlat komponenti uchun

**69%ni** tashkil etadi. Pensiya yoshi o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining o‘zgarishiga qarab belgilab boriladi.

Bu tizimning tarixiy ildizlari uni O‘zbekistonda bevosita qo‘llashni murakkablashtiradi. Lekin, belgilangan davlat pensiya tizimlari **Germaniya** va **Shveysariyadagi** kabi kasbiy va shaxsiy jamg‘arma sxemalari bilan birlashtirish imkomiyati ham bor. Bu holda, kasbiy komponent ish beruvchi tomonidan taqdim qilingan belgilangan badallar bo‘yicha pensiya rejasi yoki sanoat shartnomalaridan iborat bo‘ladi.

Bundan tashqari, ixtiyoriy ravishda xususiy banklar va sug‘urta kompaniyalarining pensiya rejalariga badallar kiritish mumkin. **Germaniya** davlatida pensiya tizimi uchun umumiy badal stavkasi **18,6%** ni, qamrov darajasi esa **82%** ni tashkil etadi. “**Allianz**” reytingida Germaniya mamlakati pensiya tizimining monandlik balli **2,8** ni tashkil etadi.

Jahon banki ko‘p pog‘onali pensiya tizimi uchun quyidagi yondashuvni tavsiya etadi:

1. Davlat byudjeti hisobidan bazaviy pensiya;
2. To‘lovlar miqdori belgilangan majburiy davlat pensiya ta‘minoti tizimi;
3. Moliyaviy aktivlarga ega bo‘lgan kasbiy yoki shaxsiy pensiya rejalarida majburiy belgilangan badallar sxemasi;
4. Bir qator nomoliyaviy va moliyaviy aktivlardan, qo‘llab-quvvatlashdan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan ixtiyoriy tizim.

Birinchi variantdan boshqa barcha pensiyalar o‘z-o‘zidan moliyalashtirilishi kerak, ya‘ni individual ishtirokchilar va ish beruvchilarning badallari hisobidan to‘lanishi kerak bo‘ladi.

**O‘zbekiston pensiya tizimini takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:**

- Xalq bankidagi amaldagi majburiy pensiya jamg‘arma hisobvaraqlari tizimi ixtiyoriy, moslashuvchan va boshqa banklar uchun ochiq shaklga o‘tkazilishini ta‘minlash va shaffofligini saqlash.
- Yirik ish beruvchilarga kasbiy pensiya ta‘minoti tizimini joriy etishga ruxsat berish, ularni moliya institutlari bilan hamkorlik qilish uchun bog‘lash.
- O‘zini o‘zi band qilganlar tomonidan davlat pensiya jamg‘armasiga kiritiladigan badallar miqdorini bir martalik qat‘iy belgilangan miqdor o‘rniga daromadlariga bog‘liq qilib belgilab, ularga oz miqdorda badal kiritishga ruxsat berish, yengillashtirish.
- Har bir pensiya uchun ma‘muriy va operatsion xarajatlarni minimallashtirish uchun davlat pensiya jamg‘armasi boshqaruvini isloh qilish. Shaffoflikni oshirish, pensiyaning aniq mezonlarini belgilab unga qat‘iy amal qilishni

taminlash va tizimni yanada avtomatlashtirish xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi.

- Rasmiy bandlik darajasini shu jumladan xotin-qizlar o'rtasida oshirish va rivojlantirish, bu pensiya ta'minoti tizimiga badallar bazasini va aholini qamrovi darajasini oshirish imkonini berishi kutilayapti.

Agentlik tomonidan pensiya tizimini takomillashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasini ishlab chiqish tavsiya qilinadi. Bunda: pensiya tizimini keng ko'lamli isloh qilish, shu jumladan pensiya tayinlash shartlarini qayta ko'rib chiqish, uni takomillashtirish pensiya yoshini umr davomiyligiga moslab qayta ko'rib chiqish, ish staji yoki pensiya olish uchun badallarni qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va aholi qamrovini oshirish jihatlarini inobatga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

### XULOSA

O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimida pensiya ta'minotini rivojlantirish bugungi kunda mamlakatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu tizimni takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilishni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Pensiya tizimining zamonaviy talablarga mos bo'lishi, uning moliyaviy barqarorligi va adolatli taqsimoti nafaqat bugungi avlodning, balki kelajak avlodlarning farovon hayotini kafolatlashning asosiy omillaridan biridir.

Mazkur maqolada keltirilgan tavsiyalar va takliflar ushbu tizimni yanada rivojlantirishda amaliy qo'llanilishi mumkin. Innovatsion yondashuvlar va xalqaro tajribalarni o'zlashtirish orqali pensiya tizimida samaradorlikni oshirish, aholini qamrab olish darajasini kengaytirish hamda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish yo'llarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, O'zbekistonda pensiya ta'minotini rivojlantirish ijtimoiy adolatni ta'minlash, xalqimizning turmush darajasini yuksaltirish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekani yana bir bor tasdiqlandi. Shu yo'lda olib borilayotgan islohotlar va yangilanishlar kelgusida yanada katta yutuqlarga erishish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*. Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Qo'shboev S. *O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari*. Toshkent: Universitet, 2020.
3. Yusupov A. *Pensiya tizimining rivojlanishi va xalqaro tajribalar*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hisobotlari va tavsiyalari.



**Internet manzillar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi rasmiy sayti: [www.mehnat.uz](http://www.mehnat.uz)
2. Davlat xizmatlari agentligi sayti: [www.davxizmat.uz](http://www.davxizmat.uz)
3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
4. Jahon Banki ijtimoiy himoya tizimi bo‘yicha ma‘lumotlari: [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
5. Pensiya tizimini isloh qilishga bag‘ishlangan maqolalar: <https://review.uz>
6. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi: [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

